

BIR QISHLOQ TARIXIDAN (Namangan tumani Olaxamak qishlog'i)

Jo'rayeva Muattar Shahobiddin qizi

University of Business and Science

Xorijiy filologiya (Ingliz tili) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Namangan viloyati Namangan tumani Olaxamak qishlog'ining tarixi uning nomini kelib chiqishi bo'yicha, urush yillaridagi axvol va mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar xususida atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'z: Namangan, Farg'ona, Olaxamak, Urganch, Beshkapa, To'sar, Qorako'l, Sho'rqishloq, O'lmas, Guldrov, Galcha, Farg'ona kanali.

Аннотация: В данной статье рассматривается история села Олахамак Наманганский район Наманганская области, происхождение его названия, ситуация во время войны и изменения за годы независимости.

Ключевые слова: Наманган, Фергана, Олахамак, Урганч, Бешкапа, Тусар, Коракул, Шуркишлок, Улмас, Гулдров, Галча, Ферганский канал.

Annotation: This article examines the history of the village of Olakhamak, Namangan district, Namangan region, the origin of its name, the situation during the war and changes during the years of independence.

Key words: Namangan, Fergana, Olakhamak, Beshkapa, Tosar, Karakol, Shorkhishloq, Olmas, Guldrov, Galcha, North Fergana canal.

Men tug'ulub o'sgan Olaxamak qishlog'i Namangan viloyati Namangan tumanida joylashgan. Qishlog'imiz shimoldan Qorako'l, To'sar qishlog'i bilan g'arb tomondan Sho'rqishloq bilan, sharq tomondan Beshkapa qishlog'i bilan chegaradosh. Qishlog'imizning kelib chiqishi tarixi haqida yosh ulug' odamlarning aytishicha, Qo'qon xoni Xudoyorxonni taxtga okazish 1852-yil 9-oktabr kuni qipchoqlar qirg'ini uyushtirishni tashqi siyosatida arzimagan hudud uchun Buxoro amirligi bilan bir necha to'qnashuvlar, mag'lubiyatlar yukini oddiy xalqning yelkasiga yuklanganligi bazi urug' va qabilalarning markazdan qochishiga sabab bo'lgan. Natijada hozirgi Farg'ona viloyati hududida joylashgan Olaxamak qishlog'idan ko'chib kelgan aholi o'zi yashab kelgan qishloq nomini bergan ekan Olaxamak nomini berishini asosiy sababi, ular oldin yashagan joy qishloq gul zona bo'lib qovun ekilsa qizigan qumdan xamakligidayoq shirin bo'lib pishar ekan.

Qishlog'imiz sobiq ittifoq tuzumi davrida Olaxamak, Beshkapa, Urganji, Qorako'l, To'sar qishloqlarini o'z ichiga olgan. Feliks Edmuntovich Dzerjinskiy nomidagi kolxoz tarkibida edi.

Mamlakatimiz mustaqillik erishganidan keyin kolxoz tuzumi tugatilib “Turkiston” jamoa xo‘jaligiga aylantirildi. Bundan so‘ng jamoa xo‘jaligi fermerlarga fermer xo‘jaligi qilib berildi.

Qishlog‘imiz sobiq ittifoq tizimi davrida Shimoliy Farg‘ona Kanalidan suv ichar edi keying yillarda nasos orqali Sirdaryodan suv oladi. Qishlog‘imiz aholisini asosan o‘zbeklar tashkil etadi. Hozirgi kunda 650 xonadon, 4000 taga yaqin aholi istiqomat qiladi. Qishlog‘imizda 2007-yilda ishga tushirilgan “Iqtisodiyot” kolleji bo‘lgan hozirgi kunda “Kasb-hunar” markazi tashkil etildi. Qishlog‘imizda “Otavalixon” jome masjidi, Qishloq vrachlik punkiti, 13-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, 2 ta bolalar bog‘chasi, Olaxamak MFY idorasi, nonvoyxona, go‘sht do‘koni, tadbirkorlarni 10 dan ortiq tijorat do‘konlari faoliyatlarini yuritmoqda.

Qishlog‘imizda ulug‘ vatan urushida jasorat ko‘rsatgan front faxriylari yashab o‘tgan. Bulardan ikki marta “Shuxrat ordeni” sohibi Isoqjon Nazarov, Turdash Tursunov, Turg‘unboy Davlatov, Abdullajon Raxmatov, Usmonjon Nazarov va boshqalar.

Qishlog‘imizdan ziyolilar ko‘p chiqqan. Bulardan Xolmirzayevlar oilasini tilga olishimiz mumkin. Falsafa fanlar nomzodi marxum Saloxiddin Xolmirzayev, Falsafa fanlar doktori Zokirjon Xolmirzayev, Falsafa fanlar nomzodi Javlonbek Xolmirzayev, 40 yildan ortiq o‘qituvchilik qilgan Alijon G‘apparov, O‘g‘ilxon Abdullayeva, Yoldashali Xo‘jaxmedov, Jamilaxon Mamadaliyeva, Abdullajon Nuriddinov, Xaydarali Xoliqov kabi o‘z kasbini fidoiylari faoliyat ko‘rsatishgan. Aholimiz salomatligi yo‘lida xizmat qilgan “Sog‘lom avlod” ordeni sohibi vrach Xamidullo Sodiqov, ichki ishlar hodimi palkovnik Olimjon Dolimov, polkovnik Bositxon Qosimov.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda katta hissasini qo‘shgan Mamatibrohim Toipov, Valixon Raxmonov, Boydeda Yoqubov va boshqalar.

Qishlog‘imiz kun sayin chiroy ochib bormoqda. “Olaxamak” MFYda kasb-hunarga o‘qitish markazi foydalanishga topshirildi.

Markazni ochilish marosimida Namangan viloyati hokimi Shavkatjon Abdurazzaqov, tuman hokimi Sadritdin Mo‘minov hamda tuman sektor rahbarlari, nuroniylar, mahalla faollari, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida Namangan kasb-hunarga o‘qitish markazini rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish uchun 12 mlrd. 700 mln. so‘m mablag‘ sarflandi. Monomarkazda 17 ta kasb yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Markazni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga hamda Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi tashabbusi ko‘magi bilan tashkil etildi. Amaliyotga asosiy e‘tibor qaratilgan ushbu o‘quv markazida bir vaqtda 648 nafar ishsiz fuqaroni kasbga o‘qitish imkoniyati

mavjud. O'quvchilar 3 oylik kurslarda kasbiy ta'lim olishadi. Nogironligi bo'lgan o'quvchilarga bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida stipendiya ham beriladi. Viloyatimizda ham xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasbhunarga va xorijiy tillarga o'qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar olishga ko'maklashish borasida bugungi foydalanishga topshirilayotgan maktab ham katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Obod qishloq dasturi asosida yo'llar asfaltlandi, ichimlik suv tarmoqlari yangilandi va mahallalarga xonadonlarga suv kirdi. Xalqimiz bunday ko'rsatilayotgan g'amxo'liklardan hursand bo'lib, tinch osuda zamonda yashayotganliklaridan duolar keltrib shukronalar keltirishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dala ma'lumotlari: Olaxamak MFY raisi Sayfiddin Raxmonov bilan 2023-yil 15-oktabr kuni suhbatlashildi.
2. Madrahimov Z. Tarixiy toponomika (o'quv qo'llanma). – T.: “Navro'z” nashriyoti,2017. – B.101
3. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – T.: O'qituvchi,2001. – B.122-123
4. Qosimov Y. Namangan vohasini sug'orilish tarixidan. –T.: Fan,1988. – B.45